

TISHLARNI METAL-KERAMIKA PROTEZLARI YORDAMIDA QAYTA TIKLASHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Alfraganus universiteti
Stomatologiya kafedrasi assistenti

MEHMONOV OG‘ABEK TANGRIQUL O‘G‘LI

Annotatsiya

Ilmiy maqolada tishlarning anatomik shakli, chaynash funksiyasi va estetik ko‘rinishini tiklashda metal-keramika protezlaridan foydalanishning dolzarb jihatlari yoritilgan. Stomatologiyada Metal karkas va keramika qoplamaning o‘zaro uyg‘unligi, ularning biologik mosligi hamda uzoq muddatli klinik samaradorligi ilmiy manbalar va amaliy kuzatuvlar asosida tahlil qilingan. Olingan natijalar metal-keramika protezlarining ortopedik stomatologiyada ishonchli usul ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: metal-keramika protezlari, tish tojlar, ortopedik stomatologiya, estetik tiklash, chaynash funksiyasi.

Аннотация

В статье представлены современные научно-практические аспекты восстановления зубов с использованием металлокерамических протезов. Рассмотрены вопросы биосовместимости, функциональной устойчивости и эстетической эффективности данных конструкций. Результаты исследования подтверждают их высокую клиническую надежность.

Ключевые слова: металлокерамические протезы, ортопедическая стоматология, коронки, эстетическая реставрация.

Annotation

The article discusses scientific and practical aspects of dental restoration using metal-ceramic prostheses. Particular attention is paid to functional durability, aesthetic

outcomes, and biological compatibility. The findings demonstrate the effectiveness of metal-ceramic restorations in orthopedic dentistry.

Key words: metal-ceramic prostheses, dental crowns, orthopedic dentistry, aesthetic restoration.

KIRISH

Dunyo kesimida Tibbiyotning Stomatologiya yo'nalishida ortopedik stomatologiyaning asosiy vazifalaridan biri tish qatorining morfofunktsional yaxlitligini tiklashdan iborat. Tish to'qimalarining kariyes, travma yoki boshqa patologik jarayonlar natijasida shikastlanishi bemor hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yuqori mustahkamlik va tabiiy estetikani ta'minlovchi protez turlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Metal-keramika protezlari ushbu talablarga javob beruvchi eng samarali konstruksiyalardan biri hisoblanadi.

Metal-keramika protezlari stomatologiyadagi qat'iy va mustahkam materiallardan biri bo'lib, ko'p yillar davomida klinik amaliyotda an'anaviy standart sifatida qabul qilinadi. Turli tadqiqotlar shu turdagi restoratsiyalarning mexanik barqarorligi, uzoq muddat xizmat qilish muddati va estetik xususiyatlarini baholagan.

1. Protezning uzoq muddatli xizmat ko'rsatishi

Ko'p yillar davomida olib borilgan sistematik sharhlarda, metal-keramika ko'priklari va tojlarining 5 yillik omon qolish darajasi yuqori bo'lib, bu ko'rsatkich tishlarni qayta tiklashda ishonchli metod ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, 5 yillik kuzatuvda metal-keramika tojlarining omon qolish darajasi 94% dan yuqori ekanligi qayd etilgan.

2. Kompleks taqqoslash: metal-keramika va boshqa materiallar

So'nggi yillarda all-ceramic (butun keramika) materiallar ham tish restoratsiyasida keng qo'llanmoqda. Adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, all-ceramic va metal-keramika protezlarining mexanik va biologik asoratlar darajasi o'xshash bo'lib, survival (omadlilik) darajalari ham yaqin ko'rsatkichlarga ega.

3. Komplikatsiyalar va dizayn faktorlarining ahamiyati

Metal-keramika protezlarining muvaffaqiyati faqat materialning mustahkamligiga bog'liq emas, balki protez dizayni va o'tkazilgan diagnostika ham muhim rol o'ynaydi. Komplikatsiyalarni minimallashtirish uchun protezning struktura dizayni, atrof-atrof to'qimalarning holati va parodont holati diqqat bilan baholanishi kerakligi qayd etilgan.

4. Estetik va biologik natijalar

Metal-keramika protezlarining estetik jihatlari past radiolukssuz metall karkas tufayli ba'zida muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ko'plab tadqiqotchilar sirkoniya va boshqa yuqori estetik materiallarni ham qo'shimcha yoki alternativa sifatida o'rganmoqda. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sirkoniya materiallarining biomekanik xususiyatlari va estetik ko'rinishi juda yaxshi bo'lib, ularning klinik omon qolish darajasi ham raqobatbardoshdir

TADQIQOT MAQSADI

Tibbiyotning Stomatologiya sohasida keng ko'lamda Metal-keramika protezlarining klinik qo'llanish samaradorligini baholash, ularning funksional va estetik afzalliklarini ilmiy asoslash hamda amaliy stomatologiyada qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish.

MATERIALLAR VA USULLAR

Ish faoliyatimiz jayayonida bemorlarga ko'rsatilayotgan xizmatlardan olingan Tadqiqot 20–55 yoshdagi 50 nafar bemorda olib borildi. Barcha bemorlarga individual ko'rsatmalar asosida metal-keramika toj yoki ko'priksimon protezlar tayyorlandi. Protezlashdan oldin klinik ko'rik, rentgenologik tekshiruv va parodont to'qimalar holati baholandi.

Kuzatuv muddati 6 oydan 24 oygacha bo'lib, quyidagi mezonlar asosida baholash amalga oshirildi:

- protezlarining mexanik barqarorligi
- chaynash samaradorligi
- milk va atrof to'qimalarning holati
- bemorlarning subyektiv qoniqish darajasi

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, bemorlarning aksariyatida metal-keramika protezlari yordamida chaynash funksiyasi to'liq tiklandi. Estetik ko'rsatkichlar bo'yicha 90% dan ortiq bemorlar natijadan mamnun ekanligini bildirdi. Keramika qoplamaning rang va shakl jihatdan tabiiy tishlarga mosligi yuqori baholandi.

Shu qatorda ayrim holatlarda milk chekinishi yoki metall karkasning chekka qismi sezilishi kuzatildi. Bu holatlar asosan protez tayyorlash texnologiyasi va klinik bosqichlarga yetarlicha amal qilinmagan hollarda yuzaga kelgani aniqlandi.

Ko'pgina klinik tadqiqotlar metal-keramika protezlarining real amaliyotdagi qo'llanish natijalarini baholagan. Bu tadqiqotlarda protetik muolajalardan so'ng bemorlarning funksional tiklanishi, parodont to'qimalarining holati va subyektiv qoniqish darajalari o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, to'g'ri rejalashtirish va texnologik bosqichlarga amal qilingan hollarda, metal-keramika protezlari funksional va estetik jihatdan yuqori natijalar beradi.

METAL-KERAMIKA PROTEZLARINING AFZALLIKLARI

yuqori mexanik mustahkamlik

uzoq muddat xizmat qilish imkoniyati

estetik ko'rsatkichlarning yuqoriligi

old va orqa tishlarda qo'llash imkoniyati

QO'LLASHGA QARSHI HOLATLAR

metall komponentlarga individual sezuvchanlik

faol parodont kasalliklari

klinik toj balandligining yetarli emasligi

XULOSA

Doimiy ko'zatuvar natijasidas O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, metal-keramika protezlari tishlarni qayta tiklashda funksional va estetik jihatdan yuqori samaradorlikka ega. To'g'ri klinik rejalashtirish va texnologik jarayonlarga rioya etish protezlarning biologik mosligi va uzoq muddatli xizmat qilishini ta'minlaydi.

Ushbu usul ortopedik stomatologiyada asosiy protezlash texnologiyalaridan biri sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Abdullayev A.A. Ortopedik stomatologiya. – Toshkent, 2022.

Karimov B.K. Zamonaviy protezlash usullari. – Buxoro, 2021.

Rosenstiel S.F., Land M.F. Contemporary Fixed Prosthodontics. – Elsevier, 2022.

Anusavice K.J. Dental Materials: Science and Applications. – Saunders, 2021.

Zarb G.A., Hobkirk J.A. Prosthodontic Principles. – Mosby, 2020.